TELEVIZION TEXNOLOGIYALAR ORQALI DAVLAT IMIJINI XALQARO MIQYOSDA ILGARI SURISH: BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA

Sotiboldiyeva Sultonposhsho

O‘zbekiston Jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Tezisda davlat imijini shakllantirishning media mexanizmlariga nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi, mahalliy va xorijiy telekanallarning milliy medianing global imijga qo‘shayotgan hissasi ko‘rib chiqiladi, hamda zamonaviy televizion texnologiyalarning bu jarayondagi strategik roli asoslanadi. Tadqiqot Yangi O‘zbekiston strategiyasi doirasidagi islohotlarni xalqaro jamoatchilikka televideniye vositasida yetkazishning amaliy mexanizmlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: davlat imiji, Yangi O‘zbekiston, televideniye, milliy media, xorijiy telekanallar, zamonaviy televizion texnologiyalar, xalqaro axborot makoni.


Davlat imijini xalqaro miqyosda shakllantirish masalasi zamonaviy media makonida strategik ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqaro jamoatchilikka yetkazish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Televideniye – ommaviyligi, vizual ta’sirchanligi va tezkorligi tufayli – davlat imijini shakllantirishning eng kuchli vositalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ilmiy adabiyotlarda davlat imiji tushunchasi ko‘p qatlamli hodisa sifatida talqin etiladi: u davlatning tashqi siyosati, iqtisodiy salohiyati va madaniy merosi haqidagi tasavvurlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, bu tasavvurlar asosan ommaviy axborot vositalari orqali shakllanadi.

J.Nayning “yumshoq kuch” (soft power) kontseptsiyasiga ko‘ra, davlatning jozibadorligi va boshqa mamlakatlarni ishontirish qobiliyati uning madaniyati, siyosiy qadriyatlari va tashqi siyosati orqali shakllanadi, bu esa media vositalarining strategik ahamiyatini kuchaytiradi. G‘.G‘.Pochepcov o‘zining imijelogiya nazariyasida imijni boshqarish jarayonini maqsadli auditoriyaga mo‘ljallangan kontentni tizimli tarzda ishlab chiqarish, translyatsiya qilish va qayta ishlash jarayonlarining yig‘indisi sifatida talqin qiladi. Bu ikki yondashuv birgalikda davlat imijini media orqali ilgari surishning nazariy

asosini tashkil etadi.

Milliy telekanallarning xorijiy tillardagi dasturlari, xalqaro axborot agentliklari bilan kontent almashinuvi, shuningdek yirik xorijiy telekanallar va platformalar bilan hamkorlik – milliy medianing global imijga qo‘shgan hissasini kengaytiruvchi asosiy yo‘nalishlardir.

N.Kulning xalqaro translyatsiya (international broadcasting) tahliliga ko‘ra, davlatlarning xorijiy auditoriyaga mo‘ljallangan translyatsiya faoliyati – BBC World Service, CNN International, CGTN kabi tashkilotlar misolida ko‘rinib turganidek – ommaviy diplomatiyaning eng barqaror va uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatuvchi vositalaridan biri hisoblanadi. Bunday hamkorlik mamlakat haqidagi obyektiv axborotning xalqaro auditoriyaga yetib borishini ta’minlaydi hamda milliy media tizimining xalqaro axborot makonidagi mavqeini mustahkamlaydi.



Raqamli translyatsiya, striming platformalari va konvergent media formatlari davlat imijini ilgari surishda sifat jihatidan yangi bosqichni ifodalaydi. S. Anxoltning davlat obro‘sini boshqarish nazariyasida ta’kidlanishicha, davlat imijini mustahkamlash strategiyasi izchil bo‘lishi va mamlakatning haqiqiy yutuqlariga tayanishi lozim. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy televizion texnologiyalar kontentni tezroq va madaniy jihatdan moslashtirilgan holda yetkazib, davlat imijini mustahkamlashning uzoq muddatli strategiyasiga texnologik asos yaratadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu boradagi muvaffaqiyat uchta yo‘nalishni uyg‘unlashtiradi: xorijiy tillarda sifatli kontent ishlab chiqarish, xalqaro translyatsiya tarmoqlari bilan institutsional hamkorlik va raqamli platformalarga integratsiyalashuv. Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy telekanallarning xorijiy hamkorlar bilan kontent almashinuvini kengaytirish va raqamli translyatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy qadam bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro maydonda davlat imijini televideniye orqali ilgari surish – nazariy asoslangan yondashuv, mahalliy va xorijiy telekanallar o‘rtasidagi samarali hamkorlik hamda zamonaviy televizion texnologiyalarning izchil joriy etilishini talab etuvchi kompleks jarayondir. Bu yo‘nalishlarni birgalikda rivojlantirish nafaqat davlat imijini mustahkamlaydi, balki Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasiga

ham bevosita hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

2. Nye J. S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. – New York: PublicAffairs, 2004. – 191 p.

3. Почепцов Г.Г. Имиджелогия. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Рефл-бук; Киев: Ваклер, 2001. – 698 с.

4. Cull N. J. Public Diplomacy: Foundations for Global Engagement in the Digital Age. – Medford: Polity Press, 2019. – 272 p.

5. Anholt S. Places: Identity, Image and Reputation. – London: Palgrave Macmillan, 2010. – 168 p.

